

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 206 (1267), 2024-yil 11-oktabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

JAHON STANDARTIGA MOS EKSPORT SALOHİYATI
DUNYO BOZORLARI SARI MUHIM QADAM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-oktabr kuni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlar va rejalar bilan tanishdi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha katta marralar belgilangan. Bunda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va metrologiya masalalari muhim ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 27-fevraldagi farmoniga asosan, sohadagi davlat boshqaruvi takomillashtirildi hamda yangi vazifalar qo'yildi.

So'nggi yillarda 12 mingta standart tasdiqlangan edi. Yil boshidan buyon yana 1 ming 40 ta xalqaro standart qabul qilindi. Mahsulot xavfsizligi va sifatini ta'minlash maqsadida 29 ta texnik reglament ishlab chiqildi. Bular sanoat korxonalari va tadbirkorlarga yetkazilib, sertifikatlar olishiga ko'maklashilyapti.

Mutasaddilar sohada qilingan ishlar, yil yakunigacha va keyingi yilga mo'ljallangan rejalar bo'yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari tashqi bozorlarga chiqish uchun samarali texnik tartibga solish tizimi shartligini ta'kidlab, qo'shimcha vazifalarni belgilab berdi.

Bugungi kunda yurtimizdagi 269 ta laboratoriyadan atigi 64 tasida o'tkazilgan sinovlar xalqaro darajada tan olinadi. Oqibatda tadbirkorlar mahsulotlarini eksportga olib chiqishda qo'shimcha sinovlar o'tkazishga majbur bo'lmoqda.

Shu bois, xalqaro tan olinadigan laboratoriyalarni ko'paytirish, elektr texnikasi, qurilish materiallari, mashinasozlik kabi sohalarda 10 ta yangi laboratoriya tashkil qilish zarurligi aytiladi.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidan bormoqda. Texnik tartibga solish sohasidagi qonunchilikni ushbu tashkilot talablariga moslashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Bu yil 340 ta milliy standart, 2025-yil yakunigacha yana 38 ta reglament ishlab chiqiladi. 28 ta texnik qo'mita, laboratoriyalar faoliyatini raqamlashtirish ham muhim. Buning uchun "Texnik tartibga solish" elektron platformasi ishga tushiriladi.

Sohada sifat va samarani ta'minlash uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, xalqaro standartlar asosida ishlaydigan mutaxassislar kerak. Shu bois, sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

O'ZA

O'ZBEKISTON — TURKMANISTON: AZALIY DO'STLIK VA YAXSHI
QO'SHNICHILIK RISHTALARIGA SODIQLIK TIMSOLI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-oktabr kuni atoli turkman mutafakkiri, Sharq mumtoz adabiyotining yetuk namoyandasi, shoir va ma'rifatparvar Maxtumquli Firoq'iy tavalludining 300 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etish uchun Turkmanistonga tashrif buyurdi.

Ushbu tashrif mamlakatlarimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va madaniyatlararo mulqotni mustahkamlash siyosatiga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston va Turkmaniston mintaqadagi yaqin qo'shni hamda vaqt sinovidan o'tgan hamkorlardir.

Davlatlarimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat va tenglik tamoyillariga asoslangan samarali siyosiy mulqotni yo'lga qo'yish orqali hamkorlikni faollashtirish yo'lini belgilab oldi.

Turkmaniston O'zbekistonning Markaziy Osiyoda o'zaro manfaatli hamkorlik hududini yaratish,

mintaqaning xalqaro maydondagi roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy ochiq, konstruktiv tashqi siyosatini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ikki davlatning nuqtayi nazari va pozitsiyalari mos keladi yoki o'xshashdir.

Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON PREZIDENTI
TURKMANISTONGA TASHRIF BUYURDIO'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 10-oktabr kuni amaliy tashrif bilan
Ashxobod shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarini aeroportda Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari Tangriguli Ataxalliyev va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Asosiy tadbirlar 11-oktabr kuni bo'lib o'tadi. O'zbekiston yetakchisi turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firoq'iy tavalludining

300 yilligiga bag'ishlangan "Zamon va sivilizatsiyalarning o'zaro bog'liqligi — tinchlik va taraqqiyot asosi" xalqaro forumining yalpi majlisida nutq so'zlaydi.

Davlatimiz rahbari tadbir doirasida ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazadi.

O'ZA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS
QONUNCHILIK PALATASI
VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVI KUNI

Mazkur maqola O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.



(Ikkinchi maqola)

Mahalla shunchaki ijtimoiy institut emas, balki asrlar davomida milliy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy totuvlikning beshigi bo'lib kelgan o'ziga xos o'zini o'zi boshqarish shaklidir. Mahalla doirasida o'zaro yordam, mehr-shafqat, ijtimoiy mas'uliyat va yaxshi qo'shnichilik kabi fundamental tamoyillar vujudga kelib, rivojlanadi. Bu tamoyillar butun mamlakatda ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilsa, o'sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm suradi, noxush holatlarga yo'l qo'yilmaydi, degan so'zlari mahalla tizimi xodimlari faoliyatida dasturlamalga aylangan.

Ushbu fikr mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashda ishtirok etayotgan barcha ma'muriy boshqaruv idoralari va fuqarolar bilan faol hamkorlik qilish tizimida o'zaro ishonch muhitini yaratish borasidagi ishlarining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

SAMARALI ISLOHOTLARNING
ASOSIY OMILLARI

Yangi O'zbekistonni barpo etish jadal tus olgan hozirgi davrda ushbu o'z o'zini boshqarish instituti faoliyati samarasini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lami va puxta o'ylangan innovatsiyalar hayotga tatbiq etilmoqda. Ushbu sohada mamlakatimizda muayyan tajriba to'plandi hamda jarayon tobora kengayib va chuqurlashib bormoqda. Mazkur jabhadagi salmoqli natijalarning o'ziga xos muhim omillari va tayanch manbalari bor, albatta.

Davomi 4-betda

ARALASH SAYLOV TIZIMIGA O'TISH
DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING
MUHIM BOSQICHIDIR

O'zbekistonda parlament saylovi tizimini isloh qilish doirasida aralash saylov tizimiga o'tish mamlakat demokratik rivojlanishining yangi bosqichini anglatadi. Aralash saylov tizimi xalq xohish-irodasini to'liq aks ettirishi, siyosiy partiyalarning o'z elektorati bilan munosabatlarini kuchaytirishi va parlamentning xalq manfaatlariga xizmat qiladigan yanada samarali qonunchilik organiga aylanishida muhim ahamiyatga ega. Xo'sh, aralash saylov tizimi o'zi nima, uning afzalliklari, mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdagi roli qanday?

Aralash saylov
tizimi nima?

Aralash saylov tizimi ikki asosiy saylov tartibi — majoritar va proporsional tizimlarni o'z ichiga oladi. Majoritar tizimda

saylovchilar muayyan nomzodga ovoz beradi va ko'pchilik ovozni olgan shaxs g'olib bo'ladi. O'zbekistonda shu kungacha o'tkazilgan saylovlarda aynan majoritar tizimdan foydalanilgan.

Davomi 2-betda

Inson qadri uchun

QO'RQUV VA XAVOTIRDAN
ISHONCH, ADOLAT
MASKANIGA AYLANAYOTGAN
YANGI SUD TIZIMI

Mamlakatimizda sud tizimini yanada takomillashtirish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, aholining odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan muhim islohotlar kechmoqda.

Jumladan, 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Sud qarorlarini qonuniyligi va asosliqligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan sud qarorlarini qayta ko'rish sohasida muhim o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Joriy yil 1-yanvardan boshlab tumanlararo, tuman, shahar sudlari

tomonidan birinchi instansiya sudida ko'rilgan ishlar viloyat sudlarida va ularga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida, viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar mazkur sudlarda taftish tartibida ko'rib chiqilmoqda.

Davomi 5-betda



O‘zbekiston – Turkmaniston: AZALIY DO‘STLIK VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK RISHTALARIGA SODIQLIK TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli keyingi yillarda davlatlararo munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

2017-yil ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda tarixiy palla bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidentining Turkmanistonga uch marta tashrifi, jumladan, 6-7-mart kunlari davlat tashrifi amalga oshirildi. Bu davlatimiz rahbarining oliy lavozimga saylanganidan keyingi ilk rasmiy xorijiy safaridir. Ushbu chuqur ramziy qadam ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi hamda ularga dinamik va keng qamrovli tus berdi.

2022-yilda ikki davlat rahbarlari o‘zaro rasmiy tashriflarni, 2023-yilda esa ko‘p tomonlama hamkorlik doirasida amaliy tashriflar bilan almashdilar. Ushbu uchrashuvlar, shubhasiz, Markaziy Osiyodagi umumiy mintaqamizda uzoq muddatli barqaror sheriklik, tinchlik va yaxshi qo‘shnichilikni rivojlantirish va kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yuqori darajadagi hamkorlik ham izchil rivoj topmoqda. Parlamentlararo va idoralararo aloqalar ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama shakllarda mustahkamlanib borayotir.

Bugungi kunda 314 ta ikki tomonlama, jumladan, davlatlararo, hukumatlararo va

Yurtimizda turkman tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, O‘zbekistonda turkman tilida ta‘lim beradigan 44 ta maktab mavjud. Qoraqalpog‘ davlat universiteti turkman filologiyasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida turkman tili o‘qituvchilari tayyorlanmoqda.

O‘zbekiston televideniyesining markaziy “Yoshlar” va Qoraqalpog‘istondagi “Diyar” radiokanalida turkman tilida dasturlar efigra uzatilmogda.

Albatta, o‘zaro madaniy almashinuv xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va o‘zaro anglashuvni oshirishga xizmat qilayotir.

Davlatimiz rahbarining ushbu tashrifi nuqtayi nazaridan O‘zbekistonda turkman xalqining buyuk farzandi Maxtumquli Firog‘iyning boy merosi barchaga ma‘lum va yuksak qadrlanayotganini alohida ta‘kidlash muhim.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari tarixida yangi bosqich boshlangan bugungi kunda Maxtumquli Firog‘iyning o‘lmas adabiy merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2017-yil may oyida o‘zbek va turkman xalqlarining abadiy do‘stligi va birodarligi belgisi sifatida Toshkent shahridagi ko‘chalardan biriga buyuk turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy



idoralararo hujjatlardan iborat huquqiy baza shakllangan.

Shuningdek, Turkmaniston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. 2023-yil yakuniga ko‘ra, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollaridan oshdi, joriy yil yanvar-avgust oylarida ushbu ko‘rsatkich qariyb 520 million dollarga yetdi.

Mintaqalararo va transchegaraviy hamkorlik ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Buxoro va Xorazm hamda Turkmanistonning Lebap va Dashoguz viloyatlari o‘rtasida samarali aloqalar ko‘rnatildi. Tomonlar joriy yil noyabr oyida Turkmanobod shahrida ikkinchi Hududlararo forumini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Ikki davlat mintaqada yirik energetika loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Transport sohasi ham munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Mamlakatlarimizning o‘zaro integratsiyalashgan avtomobil va temir yo‘llari uchinchi davlatlar uchun tranzit vazifasini o‘taydi.

O‘zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog‘lab turadigan tarix, madaniyat va urf-odatlar xalqlarimizning umumiy mulkiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar rishtalarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Turkmaniston vakillari ikki davlat hududlarida o‘tkazilayotgan turli madaniy tadbirlar, konsertlar, festival va tanlovlar, sport musobaqalarida doimiy tarzda ishtirok etadi.

O‘zbekistondagi turkman diasporasi salkam 200 ming kishini tashkil qiladi.

nomi berildi va uning sharafiga yodgorlik o‘rnatildi. Turkmaniston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi munosabati bilan poytaxtimizda Ashxobod bog‘i faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xivada barpo etilgan Maxtumquli yodgorlik majmuasi ham uning ijodi muxlislarini o‘ziga tortadigan maskanga aylangan.

Joriy yil fevral oyida O‘zbekiston Prezidentining mamlakatimizda shoir tavalludining 300 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingani o‘zbek xalqining Maxtumquli Firog‘iyga, uning shaxsiyati misolida esa qardosh turkman xalqiga hurmat-ehtiromining yorqin ifodasi bo‘ldi. Hujjatda Maxtumquli Firog‘iyning “Tanlangan asarlari”ni hamda uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plamini chop etishga tayyorlash va nashr etish, uning hayoti va ijodi haqida spektakl sahnalashtirish, o‘zbek-turkman kino ustalari hamkorligida Maxtumquli Firog‘iyga bag‘ishlangan badiiy film yaratish ko‘zda tutilgan.

Muxtasar aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning atqli turkman shoiri va mutafakkiri tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarda ishtirok etishi qardosh turkman xalqining madaniyati hamda merosiga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatilishini yana bir bor tasdiqlaydi va albatta, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini yanada mustahkamlashga muhim hissa qo‘shadi.

“Dunyo” AA



Samandar ISMOILOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi

Boshlanishi 1-betda

Bunda saylovchilar nomzodlarni bevosita qo‘llab-quvvatlab, har bir saylov okrugi faqat eng ko‘p ovoz olgan shaxs saylanib kelgan. Proporsional tizim esa partiyaviy saylovga asoslanadi. Saylovchilar muayyan partiyaning nomzodlar ro‘yxatiga ovoz beradi va deputatlik o‘rinlari partiyalarning ovoz ulushi asosida taqsimlanadi.

O‘zbekistonning yangi saylov tizimi aralash tartibda bo‘lib, parlamentning yarim qismi majoritar, qolgani esa proporsional tizim asosida saylanadi. Bunda 75 deputat bevosita saylovchilar tomonidan nomzodlar orasidan tanlansa, qolgan 75 nafari partiyalar ro‘yxati orqali saylanadi. Bu yondashuv demokratik tizimni yanada kengaytirib, saylovchilarga ikki xil — individual nomzod va partiyaviy tanlov imkoniyatini yaratadi.

Bu tizimning afzalliklari qanday?

Aralash saylov tizimining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u saylovchilarning fikr va xohishlarini to‘liq aks ettiradi. Zero, majoritar tizim saylovchilarga o‘z okrugidagi nomzodga bevosita ovoz berish imkonini beradi, bu esa nomzodning o‘z okrugidagi aholi bilan bevosita aloqada bo‘lishi va ularning ehtiyojlarini bilishini talab qiladi. Shu bilan birga, proporsional tizim partiyalarning umumiy dasturi va maqsadlariga ovoz berish imkonini yaratadi, natijada fuqarolar

Mulohaza

JURNALISTIKADA JANRLAR AHAMIYATI



Xolmurod SALIMOV, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi v.b.

Soha olimlari janrlar jurnalistga o‘z materialiga mos ko‘rinishni tanlash, voqealarni muayyan shaklda ko‘rsatib berish uchun zarurligini ta‘kidlaydi. Ular har bir janr muayyan axboriy vazifaning yechimini topish uchun qo‘llanilishi, janrlar bo‘yicha ixtisoslashish ham mumkinligi xususida fikrlar bildirgan.

Bugungi kunga kelib bosma ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinyotgan

siyosiy partiya dasturlarini baholash orqali tanlov qilishi mumkin bo‘ladi.

Bu jarayon ikki yo‘nalishda ishlaydi: bir tomondan, saylovchilar o‘z shaxsiy vakilini tanlash orqali mahalliy darajadagi muammolarni yechishga imkoniyat yaratadi. Boshqa tomondan, partiyaviy tanlov orqali mamlakatning umumiy siyosiy rivojlanish yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi.

Aralash saylov tizimi siyosiy raqobat va partiyalar o‘rtasidagi kurashni kuchaytiradi. Majoritar tizimda har bir nomzod o‘z saylov okrugi g‘olib bo‘lish uchun saylovchilar bilan yaqindan ishlashga majbur bo‘lsa, proporsional tizimda partiyalar o‘z elektoratiga aniq dasturlar va takliflar orqali murojaat qilishga intiladi. Partiyalar faqatgina xalqni o‘z dasturiga ishontririb, ko‘proq ovoz olishga erishishi mumkin bo‘ladi.

Saylov tizimining aralash bo‘lishi parlamentda turli siyosiy kuchlar vakillik

siyosiy ishtiroki faollashib, saylov kampaniyalari orqali jamiyatning siyosiy ongi yuksaladi.

Aralash tizimda partiyalar va deputatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi. Proporsional tizimda saylangan deputatlar o‘z partiyalari oldida ko‘proq mas‘uliyat his qiladi va partiyaning Saylovoldi dasturi asosida ishlashga majbur bo‘ladi. Bu jarayon deputatlarning saylovchilar bilan bevosita bog‘lanishini ham ta‘minlaydi, chunki har bir deputat vakolat muddati davomida o‘z partiyasi va elektorati oldida hisobdor bo‘ladi.

Aralash saylov tizimining yana bir muhim jihati qonun ijodkorligi samaradorligini oshirishdir. Proporsional tizim orqali saylangan deputatlar partiyalar tomonidan o‘z dasturlariga asoslangan ravishda ishlab chiqilgan qonun loyihalari ustida faoliyat yuritadi. Bu esa parlamentda muvozanatni ta‘minlab, qonun loyihalari

Aralash tizimda partiyalar va deputatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi. Proporsional tizimda saylangan deputatlar o‘z partiyalari oldida ko‘proq mas‘uliyat his qiladi va partiyaning Saylovoldi dasturi asosida ishlashga majbur bo‘ladi. Bu jarayon deputatlarning saylovchilar bilan bevosita bog‘lanishini ham ta‘minlaydi, chunki har bir deputat vakolat muddati davomida o‘z partiyasi va elektorati oldida hisobdor bo‘ladi.

qilishiga yo‘l ochadi, bu esa siyosiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Chunki parlamentda bir necha partiya vakillari ishtirok etishi siyosiy muvozanatni saqlashni osonlashtiradi. Shu jihatdan ko‘ppartiyaviylik fuqarolarning turli siyosiy qarashlarini aks ettiradi, bu esa parlamentda xalq manfaatlarining ko‘proq e‘tiborga olinishi uchun imkoniyat yaratadi.

Aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarning roli va ahamiyatini oshiradi. Bunda partiyalar elektoratning ishonchini qozonish uchun o‘z dasturlarini takomillashtirish va xalqqa yaqinroq bo‘lishga intiladi. O‘zbekiston tajribasida ham siyosiy partiyalar jamiyatda o‘z mavqegini mustahkamlash uchun yanada faol ishlashi lozim bo‘ladi. Saylovchilarning faqat nomzodlarni emas, balki partiya-larni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati ularning partiya faoliyatiga qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, fuqarolarning

yuzasidan konstruktiv munozaralar o‘tkazish imkonini oshiradi. Siyosiy partiyalar o‘z saylovoldi va dalarini amalga oshirishga harakat qilgan holda yanada faol va samarali qonun loyihalarini ishlab chiqishga intiladi.

Mazkur saylov tizimi dunyoning ko‘plab davlatlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda va samaradorligi ko‘p yillik amaliyotda o‘z isbotini topgan. Misol uchun, Germaniya, Yaponiya, Italiya kabi davlatlarda aralash saylov tizimi demokratiya tamoyillarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan. Germaniyada Bundestag saylovlari majoritar va proporsional tizimlarning uyg‘unligi asosida o‘tkazilib, bu fuqarolarga o‘z nomzodlarini tanlash, shu bilan birga, partiyaviy maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Yaponiyada ham mazkur tizim iqtisodiy islohotlar va siyosiy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shuningdek,

Singapur, Venesuela, Vengriya, Rossiya va Qozog‘iston kabi davlatlar aralash saylov tizimiga o‘tish orqali siyosiy raqobatni kuchaytirib, davlat boshqaruvida ko‘ppartiyaviylikni mustahkamlashga erishgan. O‘zbekistonda ham ushbu tizimni joriy qilish orqali siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtiroki va bergan ovozining samaradorligi oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning parlament saylovida aralash tizimga o‘tishi siyosiy islohotlar yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Bu tizim xalq ovozi to‘liq aks ettiradi, siyosiy partiyalar o‘rtasida raqobatni oshiradi va parlament faoliyatini demokratik tamoyillar asosida rivojlantiradi. Aralash tizim qonun chiqarish jarayonlariga yanada malakali va tajribali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Aralash saylov tizimi parlament tarkibida xilma-xil siyosiy qarashlar va manfaatlarni aks ettiruvchi partiyalar vakillarini joylashtirish orqali jamiyatning turli qatlamlarini qamrab oladi. Bu jarayon demokratiyaning muhim unsuri bo‘lgan siyosiy plyuralizimni rivojlantirib, fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishini kuchaytiradi. Siyosiy raqobatning oshishi esa davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, partiyalarning o‘z dasturlarini ro‘yobga chiqarishdagi mas‘uliyatini oshirish va xalq manfaatini uchun yanada samarali ishlashga olib keladi.

Bundan tashqari, aralash tizim fuqarolarning siyosiy ongi va faolligini oshiradi, ular nafaqat nomzodlarni, balki ularning ortidagi partiya va dasturlarni sinchiklab o‘rganadi. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirib, fuqarolarni siyosiy jarayonlarda faolroq ishtirok etishga undaydi. Aralash saylov tizimiga o‘tish natijasida siyosiy jarayonlar shaffoflashadi, siyosiy raqobat oshadi va bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning demokratik rivojlanishi va barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning aralash saylov tizimiga o‘tishi demokratik tamoyillarni mustahkamlash, saylovchilar huquqlarini kengaytirish va siyosiy hayotni faollashtirish sari qo‘yilgan katta qadamdir. Bu jarayon xalqaro tajribaga asoslanib, O‘zbekistonda zamonaviy, shaffof va samarali siyosiy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan dastur ijrosi doirasida tahririyatlarda, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va uning hududiy bo‘limlarida taniqli jurnalistlarning media sohasining bo‘lajak vakillari uchun “Mahorat maktablari”, “Yosh jurnalistlar” to‘garaklari tashkil etildi. Ushbu to‘plam mazkur maktab va to‘garaklarda ta‘lim olayotgan yoshlar uchun ham zarur qo‘llanma bo‘ladi deb o‘ylayman.

Yangi O‘zbekistonning yangi jurnalistikasini yaratish bo‘yicha ish olib borar ekanmiz, bu jarayonda jurnalistikaning asosi hisoblanmish bosma OAVni rivojlantirmay, gazeta va jurnallarimizda rang-baranglikni ta‘minlamay turib maqsadga — milliy jurnalistikamiz ravnaqiga erishib bo‘lmaydi.

Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan islohotlarni, voqea-hodisalarni, o‘zgarish va yangilanishlarni tezkor, xolis-haqqoniy, adolati yoritish ommaviy axborot vositalari xodimlari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bu jarayonda jurnalistika janrlaridan samarali foydalanish ahamiyatli.

Jurnalistikada ijodiy uslubga ega bo‘lish, doimiy ravishda kasbiy mahoratni o‘stirish muhim sanaladi. “Oltin qalamli jurnalistlar” nomi ostida chop etilayotgan ushbu to‘plam media sohasini tanlaganlar, umuman, ijodkorlarga bu borada zarur manba-qo‘llanma sifatida xizmat qiladi, degan umidamiz.



Ijtimoiy himoya manzilli va shaffof bo'lsa, jamiyatda faollik, ishonch, barqarorlik kuchayadi.

IJTIMOY DAVLATGA SAMARALI IJTIMOIY SIYOSAT ORQALI ERISHAMIZ!



Kuchli ijtimoiy siyosat — Xalq demokratik partiyasining bosh g'oyasi sanaladi. Ayni yo'nalishda kutilgan natijaga erishish uchun “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, degan tamoyilda siyosat olib borish talab etiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko'ra, O'zbekiston — ijtimoiy davlatdir. Bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir. Xalq demokratik partiyasining bosh dasturiy maqsadlari, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan eng muhim g'oyalari ana shu ta'rifda mujassamlashgan, desak to'g'ri bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dinamikasiga mos ravishda aholini ijtimoiy himoyalash, samarali ijtimoiy siyosat yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Saylovoldi dasturimizda **ijtimoiy tenglik va xalq demokratiyasi mezonlariga mos keladigan davlat barpo etish** maqsad qilinib, ushbu yo'nalishda bir qator tashabbuslar o'rin olgan. Partiyamiz har bir shaxsning Konstitutsiya bilan kafolatlangan ijtimoiy huquqlarini adolatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun harakat qilmoqda.

DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Partiyamiz asosiy g'oya va maqsadlariga mos tarzda barcha fuqarolar uchun pensiya va ijtimoiy nafaqalar insonning hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yetarli bo'lishiga erishishga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada pensionerlar hayoti bilan bog'liq masalalar birlamchi ahamiyat kash etadi.

Global miqyosda, O'zbekistonda ham uzoq umr ko'rish ko'rsatkichlari oshib bormoqda. Mazkur tendensiya, bir tomondan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishilayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, kessa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarurat kuchayadi.

Biz pensiya tizimida yangicha islohotlar va o'zgarishlar tarafdorimiz. Pensiya hamda ijtimoiy nafaqalar insonning hayotiy ehtiyojlariga yetarli bo'lishi kerak. Bizda pensyaning ijtimoiy jihatdan munosib darajasiga erishish bo'yicha qilinadigan ishlar ko'p.

Nima uchun davlat pensiya ta'minoti tizimini qayta isloh qilish zarur, degan g'oyani ilgari surmoqdamiz?

Yangilangan Konstitutsiyamizning 46-moddasiga ko'ra, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega.

Bu borada partiya **pensiya jamg'armasining faoliyatini zamonga moslashtirish va adolatli pensiya tizimini yaratish zarur**, degan qat'iy fikrda. Bu tizim shaffof ishlashi dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda kasbiy pensiya rejalarini mavjud emasligi, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqalari uchun badal stavkasi pastligi, fuqarolar o'z jamg'armalarini ixtiyoriy ravishda boshqa moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish huquqiga ega emasligi ham e'tibor qaratish kerak bo'lgan masalalardan sanaladi.

Bu borada Xalq demokratik partiyasi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib borilayotgan pensiya mablag'larini boshqarish, ularni doimiy ravishda onlayn kuzatish imkoniyatini berish taklifini ilgari surmoqda.

Mehnat faoliyati mahsulidan daromad va ijtimoiy soliqlarni to'lagan pensionerlarning muqaddam tayinlangan pensiyasini qayta

hisoblagan holda oshirilgan miqdorda tayinlash maqbul yechimdir.

Eng muhim jihatlardan biri — **Xalq demokratik partiyasi mamlakatimizda pensiya yoshini oshirmaslik kerak**, degan pozitsiyada qat'iy turadi.

YOSHGA MOS TA'LIM

Partiyamizning asosiy g'oyalari zamirida ta'lim bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutadi. Kelajakni bilimli, zukko va aqli mutaxassislar, malakali kadrlar tasavvuri etish qiyin. Shu sababdan dasturda **tezlashtirilgan ta'lim g'oyasi** ham ilgari surilmoqda.

Gap hayotga boshqacha nigoh bilan qarab, ongu shuurini o'stirayotgan, atrofini, olamni, uning bilimlarini o'rganishning dastlabki bosqichida turgan bolalar haqida ketganda, bunga nihoyatda jiddiy ko'z bilan qarash talab etiladi.

Masalan, ma'lum sabablarga ko'ra, birinchi sinfga kech borgan bolalarning keyinchalik o'z tengdoshlari safiga qo'shilib, ular bilan tengmang'ayib bilim olishi jaiji o'quvchilarning o'ziga ishonchini oshiradi. O'zi tengi bolalar bilan bir sinfda o'qish, ular bilan yelkama-yelka turish orqali bola o'zini ayro his qilmaydi, “nega men o'z tengdoshlarimdan ortda qolishim kerak”, degan fikrlar ko'nglini o'ksitmaydi.

Birinchi sinfga kech borgan bolalarga tezlashtirilgan ta'lim berish va o'zining yoshiga mos yuqori sinfga o'tkazish tartibini joriy etish tashabbusi ularning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish zarurligi bilan asoslanadi.

Xorijiy davlatlarda tezlashtirilgan ta'lim asosida iqtidorli bolalarni yuqori sinflarga o'tkazish amaliyoti keng tarqalgan. Bunday o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlar, shu jumladan, moslashtirilgan o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va moslashtirilgan o'quv materiallari mavjud.

Xalq demokratik partiyasi fikricha, **ushbu yondashuv o'quv jarayonining har bir o'quvchi ehtiyojlari va xususiyatlariga mos kelishini ta'minlashga imkon beradi**. Bu esa ularning ta'lim natijalarini yaxshilashga va o'quv jarayoni samaradorligi oshishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqib, Xalq demokratik partiyasi **birinchi sinfga kech borgan bolalar uchun tezlashtirilgan ta'lim berish va o'zining yoshiga mos yuqori sinfga o'tkazish tartibini joriy etish** taklifini ilgari surmoqda. Bu har bir bolaning aqliy va ruhiy rivojlanishi uchun kerak. Shu nuqtayi nazardan, bolaning yoshi u bilimni o'rganishi uchun ahamiyatli. Demak, bola o'z tengdoshlari bilan ta'lim olishi, ularidan ortda qolmasligi kerak. Shuning uchun biz **tezlashtirilgan ta'lim berish metodlarini amaliyotga keng tatbiq etishimiz lozim**.

ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH BORASIDAGI YANGI ODIMLAR

Globallashuv va jahon integratsiyasi natijasida bugun xorijiy tillarni mukammal bilish, IT dasturlarini o'zlashtirish zamonaviy

inson hayotida va ish faoliyatida muhim o'rin tutmoqda. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalari kun sayin kengayib borishi chet tillarni mukammal biladigan kadrlarga ehtiyojni oshirmoqda. Yaqin istiqbolda xalqaro biznes aloqalari va turizm rivojlanishi ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi.

Dasturlash sohasi ham shunday, ya'ni bugungi kunda eng talabgir sohalardan biri. Chunki hech birimiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz.

Ta'kidlash lozimki, zamonaviy mehnat bozoridaqi raqobatdoshlikning muhim sharti bo'lgan mazkur soha bo'yicha yoshlarimizning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb



vazifa hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Xalq demokratik partiyasi **maktablarda chet tillar va IT o'quv soatlarini keskin ko'paytirish** masalasini ilgari surmoqda. Chunki xorijiy tillarni bilmaslik va ularda so'zlasha olmaslik, IT yo'nalishini yaxshi o'zlashtirmaslik yoshlarning ko'p imkoniyatlardan foydalanish darajasini cheklaydi.

Dasturlash shunchaki kod yozish emas, balki sun'iy idrok yordamida aqlni charxlash hamdir. Bu yoshlarimizga algoritmlash, mantiqiy fikrlashni ham o'rgatadi. Bu texnologik yutuqlar orqali jamiyatga hissa qo'shish demakdir. Qolaversa, yildan yilga sun'iy idrok yanada rivojlanayotib, ko'p sohalarga sun'iy intellekt kirib kelmoqda. Tamaddun taraqqiyotining ushbu chaqirig'ini ta'lim jarayonida inobatga olish davr talabi.

Buning uchun, albatta, mavzularni chuqurroq tushunish, ko'nikmalarni oshirish uchun maktablarda nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan o'quv soatlarni, darslarni ko'paytirish kerak.

Yana bir muhim tomoni bor. Maktablar o'quv dasturlarida chet tillar va IT bo'yicha o'quv soatlarini keskin ko'paytirish orqali biz **maktab bitiruvchilarining mehnat bozoridaqi raqobatbardoshligini oshirishimiz aniq**.

Ta'lim va islohotlarning uzviyligi, ta'lim va yangi texnologiyalarning bog'langani, o'z navbatida, ishsizlikka qarshi eng samarali choradir.

Shu o'rinda Milliy tiklanish demokratik partiyasi o'z dasturida **maktabgacha va boshlang'ich ta'limda kompyuter savodxonligiga oid mashg'ulotlar o'tkazilmasligi taklifi bilan** chiqayotgani bizni ajablantirmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizning har bir jabhasiga faol kirib kelayotgan va kelajak kasblari qatorida ko'rilyotgan IT sohasini yoshlarimiz o'rganishga intilayotgan, ota-onalar ham o'z farzandlarini imkon qadar yoshligidanoq ushbu sohani chuqur o'zlashtirishi uchun qo'shimcha kurslarga berayotgan bir vaqtda raqibimizning o'ta konservativ ushbu g'oyasi bugungi zamon bilan hamnafas emasligi ayon bo'lmoqda.

Bugungi kunda **inklyuziv ta'limni rivojlantirish va ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** partiyamizning ta'lim sohasidagi uzoq muddatli maqsadlaridan biridir.


O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishida ham qator ilg'or takliflarni ilgari surmoqda.

Xususan, bizning **oliy ta'lim muassasalarida ta'lim vaucheri tizimini joriy etish** to'g'risidagi tashabbusimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, vaucherlar talabalarga o'z xohish-istaklari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarini tanlash imkonini beradi va shu orqali sifatlari ta'lim olish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarini o'rtasidagi raqobatning kuchayishi ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda muhim rag'bat bo'ladi. Ularni, talabalarni ko'proq jalb etish maqsadida o'z dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy o'qitish uslub va texnologiyalarini joriy etish, infratuzilmani rivojlantirishga undaydi.

Uchinchidan, ta'lim vaucheri tizimi talabalarning individual ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Har bir talaba o'z bilimiga o'zi xohlagancha sarmoya kiriti oladi, bu esa kelajakda



Ijtimoiy himoya jamiyatda boqimandalikni oshiradi, degan noto'g'ri qarashlar ham bor. Lekin rivojlangan davlatlar tajribasi buning aksini isbotlagan. Ya'ni **ijtimoiy himoya manzilli va shaffof bo'lsa, jamiyatda faollik, ishonch, barqarorlik kuchayadi**.

Mazkur dolzarb masalaga O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi dasturida alohida e'tibor qaratilmagani, aniq takliflar ilgari surilmagani taajjubli. Vaholanki, o'zini o'zi band qilish jamiyatda iqtisodiy faollik oshishi, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish harakatlari kengayishining muhim omili hisoblanadi. **Partiya dasturida ichki mehnat migratsiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratilishi, bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari kengaytirilishi borasida takliflar ilgari surilgan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish yuzasidan aniq va amaliy mexanizmlar nazarda tutilmagan**. Liberal demokratik partiya aholimizning bu boradagi katta salohiyatiga kengroq yondashishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Iqtisodiy faollik, bandlik haqida so'z borar ekan, o'zini o'zi band qilganlar uchun shart-

kabi kasblar odamlarimiz turmush tarzining asosini tashkil etgan. Xalq demokratik partiyasi endilikda **o'zini o'zi band qilganlar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash zarur** deb hisoblaydi.

O'zini o'zi band qilish ko'pincha kichik biznesni rivojlantirish yo'lidagi birinchi qadamdir. O'zini o'zi band qilganlar uchun sharoitlarni yaxshilash ishsizlikni diversifikatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun asos bo'lgan kichik biznesning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Bunday faol insonlar uchun faoliyat turlarini kengaytirish yanada moslashuvchan mehnat bozorini yaratishga yordam beradi. Ushbu tashabbus har bir fuqaro o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan yanada inklyuziv va moslashuvchan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan. Faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish yanada barqaror va adolatli iqtisodiy muhitni yaratishga yordam beradi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka olib keladi.

ISHSIZLIKDAN HIMOYA QILISHDA O'ZIGA XOS YONDASHUV

Dunyoning ko'pgina davlatlarida ishsizlik holatlarida majburiy ijtimoiy sug'urta qilishning milliy modellari joriy qilingan. Misol uchun, Germaniyada ishsizlikdan sug'urta tizimi keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimining bir qismidir. Ishchilar va ish beruvchilar sug'urta fondlariga badallar to'laydi, ish joyini yo'qotgan taqdirda esa fuqarolar ishsizlik nafaqasini oladi.

Fransiya tizimi keng ijtimoiy himoyani ta'minlaydi va ishsizlikni majburiy sug'urtalashni o'z ichiga oladi. Ushbu tizimda kasaba uyushmalari va ish beruvchilar sug'urta fondlarini boshqarishda ishtirok etadi.

Shvetsiyada ham ishsizlik nafaqalarini o'z ichiga olgan yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy sug'urta tizimi bor. Shvetsiya modelining muhim elementi ishlash uchun yangi kasblarni egallash maqsadida qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish orqali faol qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Xalq demokratik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan **ishsizlik bo'yicha majburiy ijtimoiy sug'urta qilishning milliy modeli joriy etilishi** fuqarolar hayotining og'ir davrlarida ularni moddiy qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy himoya tizimini yaratishda muhim qadam bo'ladi.

Biz saylov kampaniyasiga kirishar ekanmiz, har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari va daromad manbaini ko'paytirish bo'yicha siyosatni maqsad qilganmiz.

Partiyamizning parlamentda ko'proq o'ringa ega bo'lishi, mahalliy Kengashlardagi deputatlarining ustunligiga erishishi ijtimoiy sohadagi rejalarimiz yanada tezroq va muvaffaqiyatliroq amalga oshirilishini ta'minlaydi. Eng asosiysi, hamma uchun qulay va muhim bo'lgan ijtimoiy soha rivojlantiriladi.

Feruza MADRAHIMOVA, Kim VITALIY, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar



O‘ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!



Qiyom NAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Birinchidan, bu borada, ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari hamda 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida mahallaning “faol” modelini joriy etish orqali mahalla tizimini rivojlantirish va mahallabay ishlashda davlat organlari, mahalliy hokimlik va jamoat tashkilotlarining o'zaro samarali hamkorligi qat'iy belgilab qo'yilishi, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish bo'yicha yo'naltirish belgilangan mazkur sohadagi islohotlarning bardavom bo'lishini anglatadi.

Bugungi kunda mahallalarning vakolatlari kengaytirilib, moliyaviy mustaqilligi kuchaytirilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezon sifatida belgilandi. Barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammolari o'rganish va ularga yechim topishi tartibi joriy etildi. Aholining mahalladan turib, barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Uchinchidan, Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda qarorga muvofiq, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil qilinishi bu boradagi institutsional islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

O'z navbatida, bu fuqarolar yig'inlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunchilikda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashish, mahallabay ishlashga mas'ul shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta'minlash, shuningdek, jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili to'laqonli va samarali joriy etilishida ko'maklashish bilan bog'liq ustuvor vazifalarni hal qilish tizimining samarasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etilishi mazkur fuqarolik jamiyati institutini xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'priq vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga, jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'imi va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta'minlashga yordam bermog'ga.

Shu bilan birga, bu har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissiini yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, “mahalla yetilligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishda ko'maklashish imkonini oshirmog'ga.

Natijada mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish hamda mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag'al fuqarolarga ajratilayotgan byudjet va boshqa mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishini ta'minlash darajasi keskin ortmoqda.

Mahallalarning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag'larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samarasi oshdi va ushbu sohada amaliy mexanizm takomillashtirib borayotir.



Mahalla

TARAQQIYOT BESHIGI

(Ikkinchi maqola)

YANGI TARAQQIYOT BOSQICHI

Taraqqiyot strategiyasida mahallaning “faol” modelini joriy etish orqali ushbu tizimni yanada rivojlantirish va “mahallabay” ishlashda davlat organlari, mahalliy hokimlik va jamoat tashkilotlarining o'zaro samarali hamkorligi qat'iy belgilab qo'yildi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida esa bu boradagi dinamik jarayonni yanada chuqurlashtirish va ushbu yo'nalishdagi islohotlarning bardavom bo'lishini ta'minlashga doir ustuvor maqsad va vazifalar aniqlanib qo'rsatildi.

Bu jihatdan bugungi kunda mahalla instituti ijtimoiy hayotdagi o'z muhim o'rnini saqlab qolgan holda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni bajarishni davom ettirmog'ga va ijtimoiy o'zaro aloqa hamda qo'llab-quvvatlashning eng muhim vositasiga aylanmog'ga. Shuningdek, davlat dasturlarini amalga oshirishga yordam bermog'ga, aholi-niing farovonligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida tadbirkorlikni faol rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mahalladagi muammolarni faqat shu tizimda ishlavchi xodimlar bilan qamrab olish imkon-siz, albatta. Ayni paytda bugun jamiyatda mahalla aralashmaydigan, unga taal-luqli bo'lmagan masalaning o'zi yo'q. Yoshlar ta'lim-tarbi-yasi, oilalar mustahkamligi, ijti-moiy yordam ko'rsatish masalalari deysizmi, tadbirkorlikni rivojlan-tirish, yangi ish o'rinlari yaratishmi — barcha-barchasida mahallaning o'imi sezilib turadi.

Mahallaning ko'p qirraliligi uning ijtimoiy hayotning turli jihatlarini birlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu yoshlarni milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashdan tortib, aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirishgacha bo'lgan keng qamrovli faoliyatni o'z ichiga oladi.

Bu yo'nalishda jamoatchilik tuzilmalari, “Mahalla nazorati” va “Keksalar maslahati” guruhlari, “Oqila ayollar” harakati a'zolari, nuroniyalar, ziyolilar faolligi yo'lga qo'yilganki, hech bir masala e'tibordan chetda qolmayapti. O'z navbatida, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, rag'batlantirish tizimi ishlab chiqildi va u samarali amalga oshirilmog'ga.

Prezidentimiz 2023-yil 21-dekabrda ikkita muhim hujjat, ya'ni “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmon hamda “O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga



qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorni imzolashi mahalla tizimi tadrijida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tarixiy hujjatlarda mahallalar faoliyatini yanada samarali va tizimli tashkil qilish, ularni har tomonlama



qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish bora-sida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Hujjatlarga muvofiq, Mahallani qo'l-lab-quvvatlash kengashlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil qilindi. Har bir fuqarolar yig'inida o'ziga xos noyob tuzilma — mahalla rai-si, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, soliq va pro-filaktika inspektoridan iborat “mahalla yetilligi” faoliya-ti yo'lga qo'yildi.

Mahalla xodimlari faoliyatini asosiy samaradorlik ko'r-satkichlari (KPI) bo'yicha alohida baholash tartibi joriy etildi. Mahalla raislari hokim yordamchisi, yosh-lar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq ins-pektori faoliyatini KPI asosida baholashda 20 foiz ball berish huquqiga ega bo'ldi. “Mahalla yet-tiligi” a'zolarining ish haqini asosiy ish joyidan berish tartibi saqlab qolingan holda KPI asosida baholash natijalaridan kelib chiqib, rag'batlantirib boriladi.

Barcha mahallalarda “Mahalla budjeti” tizimi yo'lga qo'yildi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba aholining demografik va ijtimoiy holati, ta'lim, ijtimoiy soha obyektlariga doir 25 ta yo'nalish va 401 ta ko'rsatkich asosida 9452 ta mahallaning balansi shakllantirildi. Aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni bartaraf etish bo'yicha “yo'l xarita”lari, mahallalar “Ombor kitobi” hamda har bir mahallaning bandlik darajasi ishlab chiqildi. Fuqarolarning birlamchi muammolari yagona savolnomaga asosida o'rganilishi yo'lga qo'yildi.

Eng muhimi, mahallaning aholiga ijtimoiy ko'mak berish borasidagi vakolati kuchaytirildi. Endilikda “Temir daftari”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalarni ajratish “mahalla yetilligi”ning birligikdagi qarori asosida amalga oshiriladi. Mahallaning yagona platformasi orqali ijtimoiy yordamlarning manzilliligi ta'minlanayapti.

Natijada mahalla odamlar kelib fikrini, taklifini, dardini aytadigan, muammosiga yechim topadigan maskanga aylandi.

XALQARO E'TIROF

Prezidentimiz g'oyalarning xalqaro e'tirofi butun jahon siyosatining tarkibiy qismiga aylangan joriy yilning 3-5-oktabr kunlari Samarqand shahrida “Kambag'allikdan farovonlik sari” g'oyasi asosida “Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o'imi” mavzusida o'tkazilgan konferensiyada yana bir bor yaqqol namoyon bo'ldi.

Anjumanda qatnashgan BM Tning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Mahl so'zlariga e'tibor bering: “2024-yil

1-iyun sanasida BM Tning doimiy vakili sifatida O'zbekistonga yetib keldim va 2012-yildagi so'nggi tashrifimdan keyingi o'zgarishlardan hayratga tushdim. O'zbekistonda inson qadr-qimmatiga katta e'tibor qaratilib, islohotlar markaziga insonni qo'yg'an holda keng ko'lami o'zgarishlar amalga oshirilmog'ga. BM Tning doimiy vakili sifatida Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo va Surxondaryodagi mahallalarda bo'lib, shaxsan o'zim buning yaqqol guvohi bo'ldim.

Mahalliy hokimiyat vakillari, yoshlar, fermer ayollar, tadbirkorlar va keksalar bilan suhbatlarga boy bo'lgan ushbu tashriflar O'zbekiston xalqining matonati va ijoiy ruhiyati haqida chuqur taassurot qoldirdi. Hatto BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham O'zbekistonga tashrifi chog'ida Toshkent shahridagi Dilbulok mahallasida mahalliy aholi bilan uchrashib, mahallaning ahamiyatini e'tirof etgan edi.

Jamiyatning yuragi bo'lgan mahalla BM Tning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosiy tamoyili bo'lgan “Hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik” g'oyasini o'zida mujassam etadi. Bu jamiyat birligi va o'zaro qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradi hamda eng zaif qatlamlarning ham imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi. Mahalla xalq va hukumat o'rtasida ko'priq vazifasini bajarib, jamoat rivojlanishi tashabbuslarini faol ilgari suradi”.

Sabine Mahlning ushbu fikrlari UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o'rinbosari Joffri Ijumbaning “Mahalla — O'zbekistondagi kuchli ijtimoiy platforma” ma'ruzasida bayon qilingan quyidagi e'tirofi bilan hamohang: “Jadal o'zgarib borayotgan dunyoda UNICEF mahallani O'zbekistondagi fuqarolar, ayniqsa, bolalar uchun yaxshi bo'lgan barcha narsalarning makoni va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish uchun kuchli platforma sifatida ko'radi. Tashkilot mahallada o'g'il-qizlar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar sog'lom o'sib-ulg'ayishi, to'g'ri ovqatlanishi, toza suv va kanalizatsiyadan foydalanishi, bezorilik va zo'raonliksiz erkin yashashi, toza havodan nafas olishi mumkin bo'lgan xavfsiz muhitni ko'ryapti...”

Shu bilan birga, mahallalar oilalar va hukumat yoki NNT tomonidan boshqariladigan ijtimoiy xizmatlar o'rtasida ko'priq bo'lib xizmat qiladi. Oilalarga zarur yordam, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va psixologik-ijtimoiy ko'mak ko'rsatishni ta'minlaydi. Mahalla aholiga eng yaqin tuzilma bo'lgani uchun turli nizolarni hal etish orqali oilalar buzilishi, zo'raonlik yoki bolalar mehnatining oldini olishga erishadi. Bolalar huquqlarini suiste'mol qilish, qarovsizlik yoki boshqa qonunbuzilish holatlarida o'z vaqtida aralashib, himoya choralarini ta'minlaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida mahallalar jamiyatda bola huquqlari va himoyasi masalalari haqida xabardorlikni oshirishi, gender tenglikni rag'batlantirishi, ayollarga nisbatan zo'raonlik, bolalar mehnati yoki erta turmush qurish kabi zararli an'analarning oldini olishi mumkin.

Shunday qilib, mahalla har bir xonadonga yetib borish, xizmatlardan, ayniqsa, bolalar uchun teng huquqlilikni ta'minlashda o'ziga xos o'rin tutadi. Mahalla barcha sohalarida samarali xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashi, shu jumladan, xizmatlarning umumiy monitoringi va sifatini ta'minlashda faol nazorat qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, “Hech kimni e'tiborsiz qoldirmaslik” tamoyilini mahallasiz hayotga tatbiq etib bo'lmaydigan aniq va UNICEFning mahalla institutini mustahkamlashga ko'maklashish majburiyatining zamirida ham aynan shu narsa yotadi”.

Xitoyning “Gansu Lanmei Professional Skills Training School Co., Ltd” bosh menejeri Yang Ji Fanning quyidagi so'zlarini ham xalqaro e'tirofning yaqqol namunasi deiyish mumkin: “O'zbekistonga ikkinchi marta kelganimdan juda xursandman, bu — men uchun baxt va omad diyori... Kelajakda bu yerda qolib, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashda O'zbekiston tajribasini yaratishga yordam berishga tayyorman. Shu bilan birga, Mahallalar uyushmasi raisi maslahatchisi lavozimida ishlash sharafiga uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Bizning kompaniya uy xo'jaligi va xalqqa xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lib, uning qarorgohi 2200 kvadrat metrdan ortiq maydonni egallaydi va 46 mahallaga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Har yili turli xizmatlar, professional o'quv kurslarini tashkil etib boramiz.

Mijozlarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda keng qamrovli, moslashtirilgan va professional uy xizmatlari ko'rsatish modelini yaratdik. “Jamoat, oila va hayot” tamoyilining yuqori qiymatli ekotizimini yaratishni davom ettirdik va Xitoyning yetakchi brendiga aylandik.

Xitoy va O'zbekiston hamkorlikda barpo etgan “Bir makon, bir yo'l” loyihasining rivojlanishi bilan Gansu va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro almashinuvlar tez-tez sodir bo'lyapti, tomonlar sanoat kooperatsiyasini yanada mustahkamlamoqda. Qardosh shaharlar o'rtasidagi almashinuvni chuqurlashtirish borasida samarali hamkorlikka erishdik.

Biz har ikki tomon uchun o'zaro manfaat keltiruvchi sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Xususan, o'z texnologiyalarimiz, o'qituvchilar tarkibi, o'quv tizimi, operation model, standart natijalar, jihozlar va boshqalarni taqdim etamiz, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tajribamizni o'rtoqlashamiz.

Xitoy aholisiga O'zbekistonning mahallalarda xizmat ko'rsatish kompaniyalariga ishgah kirish, bu yo'nalishda korxonalar va o'quv muassasalarini tashkil etish, maktab-korxona hamkorligi va yuqori malakali iqtidorlarni tayyorlash jarayoni qiziq, albatta. Asosiy maqsadimiz mahallalarda uy-ro'zg'or xizmatlari, boshqa tegishli faoliyat va tadbirkorlik turlari hamda hamkorlik mazmunini doimiy ravishda boyitib borish, natijalarni kengaytirish va mustahkamlashdan iborat”.

BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujiining “Mahalladagi islohotlar bizni o'zaro tashabbuskorlikka undaydi” ma'ruzasida quyidagilar alohida e'tirof etilgan:

“Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning samarali organi va boy tarixiga ega fuqarolik jamiyati institutidir. Mahallalar inson qadriyatlarini, madaniyati va jamiyat hamjihatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda ushbu o'zini o'zi boshqarish organining salohiyati va boshqaruvi yaxshilashga qaratilgan tahsianga saavor islohotlarni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Mahallalar uyushmasi tashkil etilishi va takomillashtirilgan “mahalla yetilligi” tizimi bu boradagi sa'y-harakatlarda chinakam muhim qadam bo'ldi.

BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi mahallalarni fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e'tirof etib, o'zining odil jamiyatga asoslangan dasturlari orqali qo'llab-quvvatlab kelmog'ga...

Biz O'zbekiston mahallalarining hududiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda insoniylik va rivojlanishga qo'naltirilgan tashabbuslar bilan mamlakatni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyormiz”.

Bu kabi e'tiroflar xalqaro konferensiyada ishtirok etgan chet ellik boshqa taniqli ekspertlar, mamlakatimiz olim va mutaxassislarining ma'ruza va chiqishlarida ko'p bora yangradi. O'z navbatida, bu mahalla tizimini takomillashtirish va uning samarasini oshirish sohasida O'zbekiston tajribasi shakllangan va uning xalqaro maydonda keng e'tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O'zbekistonda mahalla mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Mahalla orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, aholining farovonlik darajasini oshirish va turmush sifatini yaxshilash ta'minlanmog'ga. Uning fuqarolik jamiyatidagi o'ziga xos o'imi zamon tahdidlarini samarali yengib o'tish va mamlakatning uyg'un rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Inson qadri uchun

QO‘RQUV VA XAVOTIRDAN ISHONCH, ADOLAT MASKANIGA AYLANAYOTGAN YANGI SUD TIZIMI

**Azamat IKROMOV,
Toshkent viloyati sudining
iqtisodiy ishlar bo‘yicha
sudlov hay‘ati raisi**

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko‘rilgan ishlar Oliy sudning Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘atida taftish tartibida qayta ko‘rilmoqda.

Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ko‘rilgan ishlar Oliy sud rayosatida taftish tartibida qayta ko‘riladi. Eng muhimi, endi yuqori turuvchi sudlar tomonidan quyi sudlarning bekor qilingan qarorlarini yangidan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish tartibi bekor qilinib, har bir sud instansiyasining zimmasiga ish bo‘yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatildi.

Qonunchilikda belgilangan avvalgi tartibga ko‘ra, apellyatsiya tartibida ko‘rilgan ish bo‘yicha sud hujjati ustidan norozi tarafda kassatsiya shikoyati bilan, qonuniy kuchga kirgach, kassatsiya shikoyati bilan murojaat etish imkoniga ega bo‘ladi.

Endi sud hujjatidan norozi taraf o‘z xohishi bo‘yicha qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati ustidan apellyatsiya shikoyati bilan, qonuniy kuchga kirgach, kassatsiya shikoyati bilan murojaat etish imkoniga ega bo‘ladi.

Odil sudlov sohasiga taftish instituti kiritilishi va sud qarorini taftish tartibida ko‘rish vakolatlari o‘rta bo‘g‘in sudlari hisoblangan viloyat sudlari va unga tenglashtirilgan sudlarga berilishi, taftish instansiyasi tomonidan ishini ko‘rishda quyi sudlarning moddiy va protsessual qonun normalariga rioya etilganligi holatini to‘liq taftish qilish orqali ko‘rib chiqib, sud qarorlariga qonuniy baho berilishini ta‘minlaydi.

Mazkur institutning qonunchilikka tatbiq etilishi orqali Oliy sudning markazlashgan vakolatlari quyi sudlarga o‘tkazilishi o‘rta bo‘g‘in sudlarining odil sudlovni ta‘minlashdagi vakolatlarini kengaytirish bilan birga ularga qonuniy va asosli qaror qabul qilish kabi mas‘uliyatni ham yuklaydi.

Yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi masala hal qilinmagani yoki noto‘g‘ri hal qilingani sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, apellyatsiya instansiya sudiga shikoyat (protest) kiritish muddati o‘zgarmagan bo‘lsa-da, biroq kassatsiya va taftish instansiyalariga shikoyat (protest) kiritish muddatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Unga ko‘ra, kassatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati (protesti) berishning o‘tkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha kassatsiya instansiyasi sudi

tomonidan, agar iltimosnoma kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o‘tgan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilgan va kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o‘tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo‘lsa, tiklanishi mumkin bo‘ladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran bir yil ichida beriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahri sudlariga taftish tartibidagi shikoyat (protest) berish muddati kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar o‘tgan bo‘lsa, taftish tartibidagi shikoyat (protest) kassatsiya instansiyasi sudi qaror qabul qilgan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

Shuningdek, Oliy sudning Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘atiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlari tomonidan ishini taftish tartibida ko‘rish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar o‘tgan bo‘lsa, taftish tartibidagi shikoyat (protest) ushbu sudlar tomonidan ishini ko‘rish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

Shu bilan birga, Oliy sud rayosatiga Oliy sud raisining, Bosh prokurorning protesti Iqtisodiy protsessual kodeksning 307-moddasi birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shaxslarning murojaati kelib tushgan kundan e‘tiboran uch oy ichida, lekin Oliy sudning



Endi sud hujjatidan norozi taraf o‘z xohishi bo‘yicha qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati ustidan apellyatsiya shikoyati bilan, qonuniy kuchga kirgach, kassatsiya shikoyati bilan murojaat etish imkoniga ega bo‘ladi.



Yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi masala hal qilinmagani yoki noto‘g‘ri hal qilingani sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi.

Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ishini taftish tartibida ko‘rish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran olti oydan ortiq bo‘lmagan muddatda kiritilishi mumkin.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) berishning o‘tkazib yuborilgan muddati taftish tartibida shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha sud tomonidan, agar iltimosnoma shikoyatni (protestni) berish muddati o‘tgan kundan e‘tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan va taftish tartibida shikoyatni (protestni) berish muddati o‘tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo‘lsa, tiklanishi mumkin.

Mazkur qonunga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra, oldingi sud hujjatlari ustidan shikoyat (protest) qilishdan farqli o‘laroq, kelgusida

fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan birinchi instansiyasi sudining sud hujjatlari qonuniy kuchga kirguniga qadar apellyatsiya tartibida yoki qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlariga nisbatan esa kassatsiya tartibida shikoyat (protest) qilish huquqi kafolatlab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlar huquqlarini keng himoya qilish, iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini keng jalb etish, investitsiyaviy va qulay ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda iqtisodiy sudlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rilayotgan ishlarning salmog‘i yildan yilga ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, iqtisodiyot sohasi rivoji va iqtisodiyot tarmoqlarida yangidan yangi munosabatlar vujudga kelishi, ikkinchi tomondan, tadbirkorlarning o‘z

huquqlarini sud orqali himoya qilishga bo‘lgan intilishi ortib borishidan dalolat beradi.

Toshkent viloyati iqtisodiy sudlariga joriy yilning birinchi yarmida jami 22 ming 643 ta, shundan tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1855 ta da’vo arizasi kelib tushgan bo‘lib, tadbirkorlar foydasiga 216 milliard 162 million so‘mga yaqin mablag‘ undirilgan.

Ushbu davrda birinchi instansiya sudlari tomonidan ko‘rib chiqilgan mazkur toifadagi iqtisodiy ishlarga nisbatan manfaatdor shaxslar tomonidan apellyatsiya, kassatsiya hamda taftish tartibida jami 535 ta shikoyat kelib tushgan.

Xulosa qilib aytganda, odil sudlov sohasidagi barcha islohotlar fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish, ularning buzilgan huquq va erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta‘minlaydi.

Dolzarb mavzu



**Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Ilm ahli orasida narsalar qanday bo‘lmog‘i lozimligini bilish aqlli odamga, narsalarning haqiqatan qandayligini bilish tajribali odamga, narsalarni yanada takomillashtirish buyuk odamga xosdir, degan tushuncha mavjud. Anglaganingizdek, bu jumalarda insonni o‘qishga, bilim olishga, doimiy izlanish va intilishga chorlov bor. Ilmni o‘z o‘rnida ishlata bilish esa katta mahoratdir.

Bugun butun dunyoda ana shu mahoratga ehtiyoj har qachongidan ortgan. Zamondan ortda qolmaslik, jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rnini mustahkamlab borish dolzarblashgan. Chunki vaziyat keskin. Qarashlar, qarorlar qat‘iylashgan. Iqtisodiyotda beqarorlik kuchaygan. Raqamlashayotgan dunyo, jadal texnologiyalar asri mukammal bilim va tajribani, mahoratni talab etmoqda. Bunday vaziyatda faqat bilimga tayaniladi. Bilimga hozirgi zamonning qimmatli boyligi, uni o‘rganish esa kechiktirib bo‘lmaydigan hodisa, deya tavsif bersak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi, nazarimizda. Shuning uchun ham bugun mamlakatlar dunyo iqtisodiyotida, jahon bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlab borishga intiladi. Aslida ham shunday. Bilimga asoslangan iqtisodiyotda rivojlanish o‘z samarasini ko‘rsatadi. Mutaxassislar bunda axborot texnologiyalarini o‘rganish va

qo‘llash katta ahamiyat kasb etishini, ta‘lim sifatini yuqori darajaga olib chiqish jamiyatda bilim orqali boylik yaratish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini oshirishini ta‘kidlaydi.

Inson — asosiy kuch

Iqtisodiyot, umuman, har qanday soha ravnaqi insonga, ya‘ni uning g‘oyasi, bilimi, tafakkuri va tashabbusiga bog‘liq. Asosiy kuch inson ekan, uning bilim egallashi uchun shart-sharoit yaratish, imkoniyat berish mamlakatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi. Iqtisodiy bilim samarasi uning barcha yo‘nalishida o‘z aksini topadi.

Iqtisodiy o‘rinishni tezlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga mo‘ljallangan bilimlar yaratish, tarqatish va foydalanish bugunning asosiy mavzularidan biriga aylanib ulgurgan. Uning asosi esa intellektual kapitalga borib taqaladi. Nou-xau, patentlar, kashfiyotlar, dasturiy ta‘minot kabilar uning mevasidir.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisi 13 foiz o‘sadi. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish tufayli 2035-yilga borib, bandlikning uchdan bir qismi o‘zgaradi. Hozirgi mavjud barcha ish hajmining 14 foizi avtomatlashtiriladi. Ko‘rinib turibdiki, dunyo jadal raqamlashib ketaveradi. O‘z navbatida, zamonaviy bilimga talab ham ortib boraveradi. Shu jihatdan qaraganda, mamlakatimizdagi islohotlar yoshlarning zamonaviy kasblar

bo‘yicha bilim va tajribasini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bunga davlatimiz rahbari yaqinda Samarqandda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki boshqaruvchilari kengashining to‘qqizinchi yillik yig‘ilishidagi nutqida ham alohida to‘xtalib, inson kapitalini rivojlantirish mamlakatimiz barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o‘rinishining mustahkam poydevori ekanini ta‘kidladi.

Mamlakatimizda yoshlarni bilimli va kasb-hunarli qilib voyaga yetkazish borasida ko‘rilayotgan choralar xususida so‘z yuritir ekanimiz, o‘sha nufuzli anjuman ishtirokchisi — Polsha moliya vazirligining xalqaro hamkorlik departamenti direktori Pavel Shibeckning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Ta‘lim iqtisodiyotning o‘rinishi uchun eng muhim omil. Polsha 1989-yildan keyin juda quyi darajadan rivojlana boshlagan va ta‘limga qaratilgan sa‘y-harakatlar tufayli YIMni sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo‘lgan mamlakat.

Menimcha, yuqori malakali ishchi kuchi zarur bo‘lgan zamonaviy geosiyosiy dunyoda sifati ta‘lim dolzarb ahamiyatga ega. Rivojlanishda davom etayotgan mamlakat uchun bilimli jamiyatga ega bo‘lish muhim”.

Ta‘limga e‘tibor qaratgan jamiyat yutuqzamdardir. Bunday mamlakatning iqtisodiyoti barqaror, xalqi farovon hayot kechiradi. Bunga misol juda ko‘p. Aytaylik, dunyo iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega Janubiy Koreyada reyting tizimi hayotning

deyarli barcha jabhasiga tatbiq etiladi. Bu tizim, ayniqsa, ta‘lim sohasida juda muhim hisoblanadi. Eng yaxshi talabalar mamlakatning nufuzli universitetlarida tahsil oladi. Janubiy Koreyadagi eng yuqori reytingga ega universitetlar uchligi “SKY” deb nomlanib, ularga o‘qishga kirish abituriyentning maktabdagi yutuqlari va kirish imtihoni natijalariga bog‘liq. Shuning uchun koreyaliklar bolalikdan mana shunday nufuzli oliyoghlarga o‘qishga kirishni orzu qiladi va shu maqsadda harakatdan to‘xtamaydi.

Ehtimol, Janubiy Koreya iqtisodiyotidagi bugungi misli ko‘rilmagan yutuqlarda mamlakat yoshlarining shunday intilishi mujassam, desak xato bo‘lmaydi. O‘zi, umuman, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya singari davlatlar birdan zamonaviy texnologiya masalasida tengma-teng bellashadigan, raqobatlashadigan mamlakatlar bo‘lib qolmagan. Buning uchun uzoq yillar bosib o‘tilgan. Yo‘lining boshida esa insonga yo‘naltirilgan kapital, ya‘ni bilim turibdi.

Bugun oxirgi rumumdagi telefon yoki elektromobil xarid qilish uchun xorijda ishlash kelishga shoshilayotgan avlod vakillaridan biri sifatida mamlakatimizdagi hozirgi islohotlar vaqti kelib o‘z samarasini berishiga ishonaman. Ochiq‘i, hozirdan sezilayotgan jihatlar ham yo‘q emas. Shunday deymiz-u, oramizda mana shu kabi ilg‘or texnikalarning hech bo‘lmasa muqobilini yaratishga intilayotgan yurtidoshlarimiz bormikan?! Umuman,

yoshlarimiz o‘z ixtiro va kashfiyotlari, ilmiy izlanishlari orqali iqtisodiyotimizga qanchalik naf keltirmoqda? Aytaylik, bir zavodning yosh xodimi ishlab chiqarish jarayonida qaysidir dastgoh murvatiga ishlav bergani ish unumdorligini oshirib yuborgani yoki biror dasturimizning qaysidir dasturni takomillashtirgani butun dunyo texnologiyasi ishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani haqida nimaga yozmaymiz? Bilmaymizmi yoki bunday iqtidorlar yo‘qmi?!

To‘g‘ri, yoshlar turli xalqaro fan olimpiadalarida ancha ilg‘or. Ular orasida mahalliy va xalqaro doiradagi turli tanlovlar g‘oliblari ham talaygina. Yurtimizda 2018-yildan boshlab har yili Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi — Innoveek.uz o‘tkazib kelinadi. Uning xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsiya fondlari, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes inkubatorlarni yagona maqsad yo‘lida jamlovchi innovatsion texnologiyalar platformasiga aylangani ham haqiqat. Biroq iqtidorlarning individual faoliyati, kelgusi taqdiri bilan unchalik ham qiziqavermaymiz. Mazkur yo‘nalishtagi anjuman, tadbir va forumlar o‘rganidan so‘ng ularning natijasi haqida ko‘p ham yozavermaymiz. Kashfiyotchi, iqtidorli yoshlarimiz, ilmiy izlanuvchilarimiz, mutaxassislarimiz, olimlarimiz faoliyatini ommalashtirmayapmiz, dunyoga tanitmayapmiz. Vaholanki, har qanday g‘oya, tashabbus, innovatsiya, avvalo, shaxsiy fikr mahsulidir.

Innovatsiya — taraqqiyotdan darak

2022-yilgi Global innovatsion indeksga ko‘ra, ayni paytda dunyoning eng innovatsion iqtisodiyoti Shveysariya, AQSH, Shvetsiya, Buyuk Britaniya hamda Niderlandiyaga tegishli. Xitoy, Hindiston va Turkiya ham jadal rivojlanish yo‘lida.

Mamlakatimizda bu borada dadil qadamlar tashlanmoqda. Shu maqsadda 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilingan. Unga ko‘ra, shu davr ichida yurtimizda faoliyat yuritayotgan innovatsion sanoat ishlab chiqaruvchi subyektlar sonini 2250 tagacha yetkazish, texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, ventur tashkilotlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar sonini 3 barobar oshirish, ichki va tashqi bozorlarda tijoriylashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlannmalar sonini 2 barobar



ko‘paytirish, hududlardagi innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish reja qilingan.

Mutaxassislar jahon bozorida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori maosh taklif etuvchi yangi ish o‘rinlari yaratish eng ustuvor va o‘ziga xos vazifa bo‘lib qolishini aytmoqda. Buning to‘g‘ri yechimlaridan biri esa alohida strategik dasturlar ishlab chiqilishidir.

Mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Shuningdek, oliy ta‘lim bilan qamrov ham yildan yilga oshib bormoqda. Bu ham bandlik borasida samarador mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida Global innovatsion indeks reytingida O‘zbekistonning o‘mini 86-o‘rindan 2026-yilga 56-o‘ringa, tashqi bozorlarga umumiy eksportdagi yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini 2,1 foizdan 6 foizga, tadqiqotlar va ishlannmalar uchun yalpi xarajatlarni 0,15 foizdan 0,24 foizga olib chiqish, intellektual mulkdan keladigan tushumni ko‘paytirish kabi muhim vazifalar bor.

XXI asr texnologiyalar jihatidan tezkor o‘zgarishlar davri bo‘lib bormoqda. Bugungi yangilik eretga eskirib qolishi hech gap emas. Muntazam yangilanayotgan texnologiyalar yangi biznes va yangi kasblarga yo‘l ochmoqda. Bilim ana shu o‘rinlarni to‘ldirishda katta ahamiyat kasb etadi.



